

SUMALAK SAYLI

...

Har yili bahor fasli kelishi bilan yurtimizda Navro'z taomi hisoblanuvchi sumalak tayyorlanadi. Sumalak sayli – Navro'z bayramining uzviy bir qismidir. Sumalak pishirish shunchaki bir taom pishirish emas, yoshu keksa yig'ilib bir kechayu, bir kunduz davomida katta gulxan yoqib, o'yin – kulgu qilish, turli qo'shiqlarni aytish, xalq o'yinlarini o'ynash demakdir.

Bu taom xalqimiz urf-odati, hayoti va an'anasiga aylangan tarixiy taomlardan sanaladi. Sumalak sayli qadimdan kishilarda birdamlik, ahillik hissini tarbiyalab kelgan.

Qo'shtepa tumanidagi "Yoshlar markazida" mahallalardagi yoshlar yetakchilarini ishtirotida "Assalom navro'z" tadbirdi o'tkazildi. Tadbir bevosita sumalak sayliga ulanib ketdi. Yoshlar yetakchilarining tashabbusi bilan doshqozonda sumalak qaynatildi.

...

Sumalak sayli tongacha davom etdi. Tadbirda tuman hokimi I.Novikov va sektor rahbarlari, viloyat Yoshlar ishlari agentligi rahbari M.G'aniyevlar ham ishtirot etishdi.

Shuningdek, bayram tadbiriga tashrif buyurgan iste'dodli xonanadalarning milliy kuy va qo'shiqlari bayram shukuhini yanada ko'tardi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#)

2022-03-14 21:27:52